



Farxod KADIROV,
Angren universiteti o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

DSc.professor T.Ismoilov taqrizi asosida

GLOBAL IDEOLOGIES AND THEIR IMPACT ON NATIONAL AND MORAL VALUES THROUGH SOCIAL NETWORKS

Annotation

This article analyzes the concept of global ideologies, their role in contemporary society, and their influence on national and moral values through internet resources and social networks. It examines the processes through which ideological phenomena are formed within modern society and the new information environment, and reveals the mechanisms by which ideological transformations emerge in the consciousness of young people through information manipulation. In addition, the article puts forward practical recommendations aimed at preserving national identity, protecting national and moral values, and ensuring information security.

Key words: Global ideology, social networks, traditional values, information space, national identity, spiritual security.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ИДЕОЛОГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА НАЦИОНАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ ЧЕРЕЗ СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ

Аннотация

В данной статье анализируется понятие глобальных идеологий, их место в современном обществе, а также их влияние на национально-нравственные ценности через интернет-ресурсы и социальные сети. Рассматриваются процессы формирования идеологических явлений в условиях современного общества и новой информационной среды, раскрываются механизмы возникновения идейных трансформаций в сознании молодежи посредством информационной манипуляции. Наряду с этим выдвигаются практические предложения по сохранению национальной идентичности, защите национально-нравственных ценностей и обеспечению информационной безопасности.

Ключевые слова: Глобальная идеология, социальные сети, традиционные ценности, информационное пространство, национальная идентичность, духовная безопасность.

GLOBAL MAFKURALAR VA ULARNING IJTIMOIIY TARMOQLAR ORQALI MILLIY-AXLOQIY QADRIYATLARGA TA’SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqola global mafkuralarning mohiyati va ularning zamonaviy jamiyatdagi funksiyasini tahlil qiladi. Internet manbalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga ko‘rsatiladigan mafkuraviy ta’sir natijasida milliy - axloqiy qadriyatlarda yuz berayotgan o‘zgarishlar ochib beriladi. Zamonaviy axborot muhitida mafkuraviy jarayonlarning shakllanishi hamda axborot manipulyatsiyasi orqali g‘oyaviy transformatsiya mexanizmlari izohlanadi. Shuningdek, milliy o‘zlikni saqlash, ma’naviy - axloqiy qadriyatlarni himoya qilish va axborot xavfsizligini mustahkamlashga doir aniq takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Global mafkura, ijtimoiy tarmoqlar, an’anaviy qadriyatlar, axborot makoni, milliy identitet, ma’naviy xavfsizlik.

Kirish. XXI asrda global ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari globallashuv fenomeni bilan uzviy aloqador holda namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayon zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy va siyosiy tizimlari bilan cheklanib qolmasdan, balki mafkuraviy diskurs hamda axloqiy meyorlar transformatsiyasida ham o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt asosidagi axborot tizimlari, internet tarmoqlari va ijtimoiy media platformalarining keng miqyosda joriy etilishi natijasida g‘oyalar, qadriyatlar va ma’naviy qadriyatlar almashinuvi global miqyosda jadallashib, transmilliy xarakter kasb etmoqda[1]. Natijada, jamiyatlar o‘rtasidagi mafkuraviy chegaralar tobora nisbiylashib, milliy identifikatsiya va milliy-axloqiy qadriyatlar global g‘oyaviy oqimlar bosimi ostida qayta talqin etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy sharoitda global mafkuralar liberalizm, postmodernizm, texнократик tafakkur, gender nazariyalari, shuningdek, neokolonialistik yondashuvlar shaklida namoyon bo‘lib, ular inson huquqlari, shaxs erkinligi, tenglik va individual manfaatlarining ustuvorligi kabi universal tamoyillarni ilgari suradi[2]. Biroq mazkur tamoyillar aksariyat hollarda G‘arb sivilizatsiyasining tarixiy tajribasi va qadriyatlar tizimi asosida

talqin etilib, boshqa sivilizatsion makonlarga nisbatan normativ mezon sifatida ilgari surilmoqda. Natijada, global mafkuralar faqat axborot va g‘oyalar almashinuvi vositasi bo‘lib qolmay, balki mafkuraviy ustuvorlik va g‘oyaviy hukmronlikni ta’minlashning zamonaviy mexanizmiga aylanmoqda. Mazkur jarayonda global mafkuralar milliy identitet, tarixiy xotira va madaniy merosni qayta talqin qilish, ba’zan esa ularni nisbiylashtirish orqali jamiyatlarning ijtimoiy ongiga ta’sir ko‘rsatishga intiladi. Bu holat milliy qadriyatlar tizimi bilan global g‘oyaviy oqimlar o‘rtasida murakkab ziddiyatli munosabatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lib, global mafkuraning jamiyatlar taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur va tizimli ilmiy tahlil qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimining ustuvor platformasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy kuchi – tezkorlik, ommaviylik va ruhiy ta’sirchanlikdadir. Fikrlar, g‘oyalar va tasviriy kontentlar (mem, video, post) inson ongida hissiy rezonans uyg‘otadi va natijada g‘oya tezda tarqaladi[3]. Mazkur platformalar orqali g‘oyalar, qarashlar va ijtimoiy narrativlar qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga yetib borishi va ijtimoiy xulq-atvor modellariga ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy salohiyati, avvalo, ularning tezkorligi, auditoriya qamrovi va ruhiy ta'sirchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Raqamli makonda tarqatilyotgan vizual va matnli kontentlar - jumladan, videoroliklar, memlar, postlar va interaktiv materiallar - inson ongida hissiy rezonans uyg'otish orqali g'oyaning mantiqiy tahlil qilinishidan ko'ra, emotsional darajada qabul qilishga zamin yaratadi. Natijada, muayyan mafkuraviy qarashlar tezkor ravishda ommalashadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi foydalanuvchilarning qiziqishlari, xulq-atvori va axborot iste'moli odatlariga asoslangan holda muayyan mazmundagi kontentni ustuvor tarzda taqdim etadi. Ushbu mexanizm orqali shaxslar ko'pincha o'zlari anglamagan holda ma'lum mafkuraviy yo'nalishlar doirasida axborot bilan ta'minlanib, g'oyaviy jihatdan yo'naltiriladi.

Xususan, gender tengligi, ekologik faollik, liberal individualizm kabi g'oyalar ko'pincha "zamonaviy" yoki "progressiv" qadriyatlar sifatida ustunlikka ega bo'ladi. Buning natijasida mazkur qarashlarga nisbatan tanqidiy yondashuvlar ayrim hollarda "qoloqlik", "konservativizm" yoki "zamonga mos kelmaslik" sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu holat ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy ta'siri faqat axborot uzatish bilan cheklanmasdan, balki ijtimoiy baholash mezonlarini shakllantirishda ham faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston va Markaziy Osiyoda mazkur jarayonlar, asosan, ijtimoiy tarmoqlar orqali g'arbona axloqiy modellar, turmush tarzi, kiyinish madaniyati va madaniy amaliyotlarning ommalashuvi shaklida namoyon bo'lmoqda[4]. Bu esa milliy madaniy identitet, milliy-axloqiy meyorlar tizimi bilan global g'oyaviy oqimlar o'rtasida murakkab va ko'p qatlamli munosabatlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy ta'sir mexanizmlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, ularning ijtimoiy ongga ko'rsatadigan uzoq muddatli oqibatlarini baholash dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy globallashuv sharoitida an'anaviy ijtimoiy institutlar - oila, din, urf-odatlar, marosimlar, milliy bayramlar hamda axloqiy meyorlarning mazmun-mohiyatini yangicha talqin qilish tendensiyasini kuchaytirmoqda[5]. Natijada, mazkur qadriyatlar tobora "zamonaviylik" va "global moslashuv" mezonlari asosida qayta baholanib, ularning tarixiy va madaniy ildizlari ikkinchi darajaga surilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda "trend" tushunchasi yoshlar orasida axloqiy meyorlarning nisbiylashuvi, individual manfaatlar ustuvorligi va gedonistik hayot falsafasining ommalashuviga zamin yaratmoqda. Bunday jarayonda an'anaviy qadriyatlar ko'pincha shaxs erkinligini cheklovchi, taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida talqin etilib, ularning ijtimoiy nufuziga putur yetkazilmoqda. Bu holat esa

milliy identitet va tarixiy xotiraning zaiflashishiga olib keluvchi mafkuraviy xavf omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston uchun global mafkuralarining ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelishi zamonaviy ijtimoiy-madaniy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Raqamli axborot makonining kengayishi natijasida TikTok, Instagram, YouTube kabi platformalar orqali tarqalayotgan kontentlar jamiyatning, ayniqsa, yoshlar qatlamining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur platformalarda ommalashayotgan ayrim g'oyalar milliy-axloqiy qadriyatlarga zid bo'lgan iste'molchilik mentaliteti, shaxsiy muvaffaqiyatni shon-shuhrat va moddiy boylik bilan o'lchash kabi qarashlarni targ'ib etish orqali ijtimoiy ongda yangi qadriyatlar ierarxiyasini shakllantirmoqda[6]. Biroq global mafkuraviy oqimlarning ta'siri bir yoqlama va mutlaq salbiy hodisa sifatida talqin etilishi mumkin emas. O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy qadriyatlar, ma'naviy merosni mustahkamlashga qaratilgan qator mafkuraviy va ma'rifiy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston - yangi dunyoqarash", "Ma'naviyat - eng katta boylik" kabi konseptual g'oyalar yosh avlod ongida milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tashabbuslar global axborot makonida milliy g'oyaning muqobil va raqobatbardosh diskursini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu nuqtai nazardan, global mafkuralar O'zbekiston jamiyati uchun faqat tahdid manbai sifatida emas, balki to'g'ri boshqarilgan va milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda ijobiy imkoniyatlar manbai sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda asosiy vazifa - global axborot oqimlari ustidan tizimli mafkuraviy tahlil va monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish, milliy qadriyatlar va ma'naviy ustuvorliklarni himoya qiluvchi samarali institutsional va ma'rifiy vositalarni shakllantirishdan iboratdir. Aynan shu yondashuv O'zbekistonning globallashuv sharoitida mafkuraviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy globallashuv sharoitida mafkuralar o'rtasidagi kurash an'anaviy siyosiy va harbiy formatlardan raqamli axborot makoniga ko'chgan. Endilikda g'oyaviy raqobat bevosita qurol yoki siyosiy bosim orqali emas, balki axborot oqimlari, vizual va multimediyaviy kommunikatsiya, ruhiy ta'sir mexanizmlari hamda madaniy kodlarni shakllantirish orqali olib borilmoqda. Raqamli axborot vositalarining jadal rivoji inson tafakkuri va jamiyatning mafkuraviy qobiliyatini tubdan o'zgartirdi, natijada global mafkuralar o'z ta'sirini yanada samarali shaklda amalga oshirmoqda.

Mazkur jarayonlarda global mafkuralar quyidagi strategik mexanizmlar orqali O'zbekiston sharoitidagi namoyon bo'lmoqda:

№	Strategik mexanizm	Mazmuni	O'zbekiston sharoitidagi tahlil
1	Soft power (yumshoq kuch)	Madaniyat, kino, ommaviy axborot vositalari, moda, til va turmush tarzini "zamonaviylik" va "muvaffaqiyat" mezonlari sifatida targ'ib qilish orqali ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish mexanizmi.	xorijiy ommaviy madaniyat mahsulotlari (kino, musiqiy kontent, blogerlik madaniyati) ayrim hollarda milliy mentalitet, oilaviy qadriyatlar va milliy-axloqiy me'yorlar bilan ziddiyatga kirishmoqda.
2	Axborot manipulyatsiyasi	Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali muayyan g'oyalarni ilgari surish, muqobil qarashlarni esa cheklash yoki salbiy talqin qilish jarayoni.	axborot makonida ayrim xorijiy mafkuraviy g'oyalar yashirin shaklda targ'ib qilinmoqda. Axborot savodxonligining yetarli darajada rivojlanmaganligi ayrim foydalanuvchilarning manipulyativ kontentga tanqidiy yondasha olmasligiga sabab bo'lmoqda.
3	Simvolik dominatsiya	Global siyosiy va madaniy munosabatlarda ayrim qadriyatlarni "umuminsoniy norma" sifatida legitimlash, boshqa qadriyat tizimlarini esa ikkinchi darajali deb ko'rsatish mexanizmi.	Xalqaro maydonda ayrim g'arbona qadriyatlar universal qadriyatlar sifatida ilgari surilayotgani O'zbekistonda madaniy suverenitetni saqlash zaruratini kuchaytiradi.

Madaniy homoge nizat siy	Milliy, diniy va madaniy xilma-xillikni qisqartirish hisobiga yagona global madaniyat modelini shakllantirishga qaratilgan jarayon.	O'zbekiston ko'p asrlik madaniy merosga ega jamiyat sifatida global madaniy birxillastirish jarayonlaridan ehtiyot bo'lishi lozim.
--------------------------	---	--

Bu strategiyalarni amalga oshirishda axborot platformalari, xususan, Facebook (Meta), TikTok, Instagram, X (Twitter), Telegramm kabi transmilliy korporatsiyalar mafkuraviy hukmronlikning yangi subyektlari sifatida maydonga chiqmoqda. Ularning kontent siyosati, algoritmik filtr tizimlari va tahliliy ma'lumotlar bazasi jamiyatlarining ijtimoiy ongiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli mexanizmga aylanmoqda, natijada global g'oyaviy oqimlar jamiyatlarining axloqiy, madaniy va siyosiy qarashlarini shakllantirishda sezilarli rol o'ynamoqda.

O'zbekiston sharoitida bu jarayon ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'lmoqda:

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali g'arbona yoki boshqa "neomafkuralar" yoshlar ongiga kirib borib, ularning qadriyat tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan: birinchidan, Instagram, TikTok va YouTube kabi platformalarida keng tarqalayotgan "self-made", "faqat o'zing uchun yashash", "hech kimga qarzdor emassan" kabi g'oyalar yoshlar ongiga singdirilmoqda; ikkinchidan, g'arbiy ommaviy madaniyatga asoslangan kontentlarda boylik, brendlar va hashamatli hayot "muvaqqafiyat mezoni" sifatida ko'rsatiladi; uchinchidan, ba'zi axborot oqimlari orqali gender masalalari milliy, diniy va madaniy kontekstdan uzilgan holda taqdim etilmoqda; to'rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lum g'oyalar faol targ'ib qilinib, ularga zid qarashlar esa eskilik, mutaassiblik yoki "orqada qolganlik" sifatida ko'rsatiladi; beshinchidan, reels va short-format videolarda chet elga xos nutq, kiyinish, xatti-harakat va ramzlar ommalashib, milliy urf-odatlar "eskilik" sifatida talqin qilinmoqda.

2. Milliy mafkuraviy kontentning raqamli platformalarda yetarlicha kuchli ishlab chiqilmaganligi, uning

targ'ibot va monitoring mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmaganligi. Masalan: birinchidan, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etuvchi ko'plab rasmiy sahifalarda kontent asosan uzun matnlar, rasmiy bayonotlar va statik tasvirlar shaklida joylashtiriladi; ikkinchidan, kontent ishlab chiqaruvchilar professional dizayn, hikoyalash (storytelling) va emotsional ta'sir mexanizmlaridan faol foydalanadi. Milliy mafkuraviy kontent esa ko'pincha bir xil uslubda, ijodiy yondashsuz taqdim etiladi; uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda kontentning ommalashuvi platforma algoritmlariga moslashuvni talab qiladi. Milliy mafkuraviy kontent joylashtirilganda, ko'pincha hashtag strategiyasi, nishonli auditoriya tanlovi va optimal joylashtirish vaqti hisobga olinmaydi; to'rtinchidan, raqamli makonda milliy-axloqiy qadriyatlarga ezid yoki ularni noto'g'ri talqin qiluvchi kontent paydo bo'lgan hollarda tezkor tahlil va munosabat bildirish mexanizmlari yetarlicha ishlamaydi; beshinchidan, milliy mafkurani targ'ib qilish jarayonida mahalliy blogerlar va jamoatchilik fikr yetakchilari salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti; oltinchidan, milliy mafkuraviy kontentning ta'sir darajasi ko'pincha faqat obuna soni yoki ko'rishlar bilan baholanadi. Qadriyatlar tizimidagi real o'zgarishlar, fikrlar dinamikasi va munosabatlar transformatsiyasini o'lchovchi sifat ko'rsatkichlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur holat davlat va jamiyat darajasida mafkuraviy strategiyani qayta ko'rib chiqishni va raqamli makonda milliy g'oyaviy resurslarni mustahkamlashni talab qiladi. Milliy mafkuraviy immunitet quyidagi asosiy komponentlar orqali shakllanishi mumkin:

Ta'lim tizimi	yosh avlodni mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish va g'oyaviy qarashlarni solishtirish ko'nikmalari bilan ta'minlash orqali jamiyatning mafkuraviy himoya salohiyati kuchayadi.
Milliy madaniyat va ma'naviyat	tarix, adabiyot, san'at, xalq og'zaki ijodi va an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy kommunikatsiya formatida targ'ib qilish orqali milliy g'urur va identitet mustahkamlanadi.
OAV va ijtimoiy tarmoqlar siyosati	milliy qadriyatlarga asoslangan professional media kontent ishlab chiqish, tahliliy maqolalar va interaktiv axborot platformalari orqali global g'oyalarga muqobil axborot maydoni yaratish mumkin.

O'zbekiston sharoitida mazkur strategiya "Yangi O'zbekiston – yangi dunyoqarash" mafkuraviy konseptsiyasi bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Mafkuraviy jarayonlarni faqat tahdid yoki xavf manbai sifatida ko'rishning hojati yo'q ular shuningdek, milliy manfaatlarini rivojlantirish va g'oyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Global g'oyaviy oqimlar tarkibida inson huquqlari, ekologik mas'uliyat, texnologik taraqqiyot, gender tengligi kabi ijobiy va universal qadriyatlar mavjud bo'lib, ularni milliy kontekstga moslashtirib, tanqidiy yondashuv orqali qabul qilish zarur[7]. Bunda asosiy vazifa — global mafkuralarning ijobiy tomonlarini milliy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va integratsiya qilishdan iborat. Masalan: Gender tengligi tamoyilini oilada milliy-axloqiy qadriyatlarini yemiruvchi kuch sifatida talqin qilish o'rniga, uni oila a'zolarining mas'uliyati, hamkorligi va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni mustahkamlovchi omil sifatida ko'rsatish; Texnologik erkinlikni madaniy va an'anaviy qadriyatlarining jamiyatdan uzilishi deb baholash o'rniga, uni ma'naviy va intellektual taraqqiyot vositasi sifatida qo'llash; Inson huquqlari va ekologik mas'uliyat g'oyalarini milliy

madaniyat va tarixiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, ularni mahalliy an'analarga moslab targ'ib qilish.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar murakkab xarakterga ega bo'lib, ularni faqat bir martalik chora-tadbirlar bilan bartaraf etish imkonsizdir. Shu sababli, global g'oyaviy oqimlar va ijtimoiy tarmoqlarda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarni tizimli ilmiy monitoring asosida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi[8]. Monitoring jarayoni jamiyatning ijtimoiy ongini, g'oyaviy qarashlar dinamikasini va axborot maydonidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi, shuningdek, milliy-axloqiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishni strategik rejalashtirish uchun zarur ilmiy ma'lumotlar bazasini yaratadi. O'zbekiston sharoitida mazkur monitoring va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: ijtimoiy guruhlar va yosh avlodning mafkuraviy oqimlarga nisbatan xatti-harakatlari, qarashlari va munosabatlarini tahlil qilish; onlayn makondagi madaniy ko'rinishlar, vizual kommunikatsiya va interaktiv axborot platformalari orqali ruhiy ta'sirlarni o'rganish; milliy axborot resurslarini himoya qilish, raqamli maydonda g'oyaviy manipulyatsiyalarga qarshi pedagogik metodlarni ishlab

chiqish; tarixiy, madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini virtual muhitda targ'ib qilish va ularni global g'oyaviy oqimlar bilan uyg'unlashtirish.

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar orqali mafkuraviy siyosatning amaliy mexanizmlari takomillashadi, raqamli makondagi g'oyaviy ta'sirlarga qarshi ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqiladi va milliy - axloqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, monitoring natijalari siyosiy qarorlar qabul qilishda, ta'lim va ma'naviyat tizimida strategik choralarni aniqlashda ham asosiy ilmiy poydevor vazifasini bajaradi.

Global mafkuralar ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali inson ongiga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon milliy-axloqiy qadriyatlar tizimini zaiflashtirish, madaniy uyg'unlikni buzish va jamiyatda yangi ijtimoiy tafovutlar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, global g'oyaviy oqimlarning ta'sirini baholash va boshqarish faqat xavfni kamaytirish emas, balki jamiyatning ma'naviy, madaniy va axborot tizimlarini barqarorlashtirishning strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Mafkuraviy jarayonlarga ilmiy yondashuv, axborot xavfsizligi,

ma'naviy va milliy-axloqiy immunitetni mustahkamlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlar nafaqat ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshadigan g'oyaviy ta'sirlarni, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va axloqiy me'yorlarini ham qamrab oladi. Shu sababli global mafkuralarning ta'sirini to'xtatishdan ko'ra, ularni boshqarish va milliy mentalitetga moslashtirish muhimdir.

O'zbekiston sharoitida bunday yondashuv tizimli va kompleks choralarni talab qiladi. Jumladan, ta'lim tizimi yoshlarni mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalari bilan ta'minlash orqali g'oyaviy himoyani kuchaytiradi; OAV va ijtimoiy tarmoqlar milliy-axloqiy qadriyatlarini targ'ib qiluvchi professional kontent va tahliliy platformalar orqali raqamli maydonda barqaror axborot makonini shakllantiradi; madaniyat va diniy-ma'rifiy ishlar an'anaviy qadriyatlarini zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirib, yoshlar ongida milliy g'urur va ma'naviy yetakchilikni mustahkamlaydi; yoshlar siyosati va ijtimoiy dasturlar orqali global g'oyaviy oqimlarga nisbatan tanqidiy qarash va milliy qadriyatlarini himoya qilish mexanizmlari rivojlantiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Castells, Manuel. *The Rise of the Network Society*. 2nd edition. Oxford: Blackwell Publishing, 2010. — B. 3–7.
2. Fukuyama, Francis. *The End of History and the Last Man*. New York: Free Press, 1992. — B. 42–48.
3. Sunstein, Cass R. *#Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media*. Princeton: Princeton University Press, 2017. — B. 59–65.
4. Абдуллаев, А.Қ. Глобализация и национализм. Ташкент: Фан, 2016. — Б. 91–97.
5. Huntington, Samuel P. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster, 1996. — B. 68–72.
6. Mirziyoyev, Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston, 2021. — B. 112–118.
7. Giddens, Anthony. *Runaway World: How Globalisation Is Reshaping Our Lives*. London: Profile Books, 2002. — B. 101–106.
8. McLuhan, Marshall. *Understanding Media: The Extensions of Man*. Cambridge, MA: MIT Press, 1994. — B. 23–27.
9. Kadirov, F. A. (2025). The impact of pragmatism and utilitarianism on moral development. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 279-288.
10. Changes in family values under the influence of digital technologies: an analytical study based on the example of Uzbekistan.(2025). *The Conference Hub*,12-
11. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/6>
12. Kadirov, F. A. (2025). The impact of pragmatism and utilitarianism on moral development. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 279-288.